

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMAJONOV ZAFAR ABDUJALILOVICH**

**PURINERGIK RESEPTORLARNING TABIIY INGIBITORLARI:  
SARATON PATOGENEZIDA YANGI TERAPEVTIK NISHONLAR**

**14.00.41 – Xalq tabobati**

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)**

**Mamajonov Zafar Abdusalilovich**

Purinergik retseptorlarning tabiiy ingibitorlari: saraton patogenezida yangi terapevtik nishonlar ..... 3

**Мамажонов Зафар Абдужалилович**

Природные ингибиторы пуринаргических рецепторов: новые терапевтические мишени в патогенезе рака ..... 29

**Mamajonov Zafar Abdusalilovich**

Natural Inhibitors of Purinergic Receptors: Novel Therapeutic Targets in Cancer Pathogenesis ..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 62

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMAJONOV ZAFAR ABDUJALILOVICH**

**PURINERGIK RESEPTORLARNING TABIIY INGIBITORLARI: SARATON  
PATOGENEZIDA YANGI TERAPEVTIK NISHONLAR**

**14.00.41 - Xalq tabobati**

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/tib4818 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.adti.uz](http://www.adti.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Mamatova Irodakhon Yusupovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Kayumov Holmurod Naimovich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Mirraximov Jamshid Abdullayevich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Mamatqulova Surayyo Abdusamatovna**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "19 fevral" soat 10<sup>00</sup> daqiqa da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Yu.Atabekov ko'ch. Tel.: (+998 74) 223 94 50; e-mail: info@adti.uz)

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Yu.Atabekov ko'ch. I. Tel.: (+998 74) 223 94 50)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "07 fevral" kuni tarqatildi.  
(2026 yil 07 fevral, daqiqa No 1 raqamli restr bayonnomasi).



**M.M.Mo'minjonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, k.f.d., dotsent

**J.A. Botirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

**N.S.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda onkologik kasalliklar, xususan sut bezi, oshqozon. seminoma saratonlari bilan kasallanish darajasi yildan-yilga ortib bormoqda. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 19 milliondan ortiq yangi saraton holatlari qayd etiladi<sup>1</sup>. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'sma rivojlanishida nafaqat genetik mutatsiyalar, balki hujayralararo signal uzatish tizimlarining buzilishi xususan purinergik retseptorlar orqali adenozin va ATP signallashining ortiqcha faollashuvi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli dunyo miqyosida tabiiy kelib chiqishga ega, past toksiklikka ega purinergik signal ingibitorlarini aniqlash bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo ilmiy markazlarida olib borilayotgan so'nggi tadqiqotlar purinergik signal yo'llarini nishonga olgan yangi onkoterapevtik strategiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Masalan, A2A va P2X7 retseptor antagonistlari o'sma mikro-muhitida immun javobni faollashtirish va hujayra o'sishini to'xtatishda istiqbolli vositalar sifatida baholanmoqda. Biroq mavjud sintetik moddalarning aksariyati toksik ta'sirga ega yoki klinik qo'llash uchun etarlicha xavfsiz emas. Shu sababli, dunyoda o'simlik va biologik manbalardan olingan tabiiy ingibitorlarga asoslangan yangi preparatlar yaratish yo'nalishi keskin rivojlanmoqda. Ular o'sma hujayralarida apoptoz jarayonini kuchaytirib, sog'lom to'qimalarga minimal zarar etkazadi.

Respublikamizda onkologik kasalliklar sonining ortib borishi, ekologik omillar va oziq-ovqatdagi kimyoviy moddalar ta'siri bilan izohlanmoqda. Shu bois, mahalliy xom ashyodan olingan, ekologik toza va tabiiy kelib chiqishga ega biofaol moddalardan yangi terapevtik vositalar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Purinergik retseptorlarning tabiiy ingibitorlarini o'rganish nafaqat saraton patogenezi chuqurroq tushunishga, balki milliy farmasevtika bazasini boyitish va importni almashtiruvchi preparatlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu yo'nalish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar Yangi O'zbekistonning sog'liqni saqlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlariga<sup>2</sup>, shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasidagi «...aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot xodimlari potensialini oshirish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish...»<sup>3</sup> vazifalariga to'liq mos keladi. Shu nuqtai nazardan, xalq tabobati vositalarining saraton patogenezi immun tizim mexanizmlariga, xususan, makrofaglar morfologiyasi va funksiyasiga ta'sirini ilmiy asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 12-

<sup>1</sup> <https://gco.iarc.who.int/today/en/fact-sheets-populations#global>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

iyundagi PQ-3052-son “Sog‘liqni saqlash organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 10-apreldagi PQ-4668-son “O‘zbekiston Res publikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘ri sida”gi Qarori, shuningdek, Prezidentning 2022yil 20 maydagi “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq, sog‘liqni saqlash tizimining innovatsion rivojlanishini ta‘minlashga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq holda amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari milliy onkologiya sohasida tabiiy manbali ingibitorlar asosidagi yangi terapevtik yondashuvlarni shakllantirish, apoptoz va proliferatsiya jarayonlarini modulyatsiya qilish orqali saraton patogenezi nazorat qilishning ilmiy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu ilmiy ish O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VI ustuvor yo‘nalishi- “Tibbiyot va farmakologiya” bo‘yicha belgilangan ilmiy dastur asosida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.** Saraton kasal liklari patogenezida purinergik signal yo‘llarining roli bo‘yicha tadqiqotlar jahon miqiyosida faol olib borilmoqda. Xususan, purinergik retseptorlarning A2A, A2B, P2X7, P2Y2 turlari o‘sma rivojlanishida, immun tizimning bostirilishida hamda apoptoz jarayonlarini tormozlashda muhim vositachi ekanligi aniqlangan. Bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar National Cancer Institute (AQSh), Harvard Medical School (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Karolinska Institutet (Shvetsiya), Weizmann Institute of Science (Isroil), Seoul National University Hospital (Janubiy Koreya), University of Zurich (Shveytsariya), Università di Bologna (Italiya), shuningdek, kabi etakchi ilmiy muassasalarda olib borilmoqda. Dorivor o‘simliklardan biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularning tadqiqotiga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning etakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Department of Family Medicine, University of Idaho, Division of Pharmacognosy and Natural Products Chemistry, The Ohio state university (AQSH), Department of Pharmacy, Dalhousie University, Halifax, Nova Scotia (Kanada), Department of Medical and Surgical Sciences-Endocrinology, University of Padua, (Italiya), Departments of Community Medicine, Gastroenterology and Radiology, University of Sheffield (Angliya), Medical Clinic University Hospital Kassel (Germaniya), Pharmacological Laboratory, University of Amsterdam (Niderlandiya), Laboratoire de Biochimie Générale et Nutritionnelle, CHU Purpan, Toulouse (Fransiya), School of Traditional Chinese Medicine, Southern Medical University,

---

<sup>4</sup> Burnstock G., Alexei V. Purinergic signalling and the nervous system. – Springer Science & Business Media, 2012: Abbraccio MP, Burnstock G. Purinergic signalling: pathophysiological roles. *Jpn J Pharmacol.* 1998 Oct;78(2):113-45. doi: 10.1254/jjp.78.113. PMID: 9829617.: Di Virgilio F, Dal Ben D, Sarti AC, Giuliani AL, Falzoni S. The P2X7 Receptor in Infection and Inflammation. *Immunity.* 2017 Jul 18;47(1):15-31. doi: 10.1016/j.immuni.2017.06.020. PMID: 28723547.: Illes P, Di Virgilio F, Tang Y. Editorial - Purinergic signalling: 50 years. *Neuropharmacology.* 2024 Mar 1;245:109826. doi: 10.1016/j.neuropharm.2023.109826. Epub 2023 Dec 20. PMID: 38135034.

Department of Rheumatology (Xitoy), Department of Cardiovascular Surgery, Teikyo University (Yaponiya), Department of Veterinary Medicine, King Saud University (Saudiya Arabistoni) Velayat Clinical Research Development Unit, Department of Internal Medicine (Eron), Rossiya FA Ufa ilmiy markazi, Sevastopol universiteti Politexnika instituti (Rossiya), Dorivor vositalar va tibbiyot mahsulotlari davlat ilmiy markazi (Ukraina), Toshkent farmatsevtika instituti, O'zbekiston Respublikasi FA Bioorganik kimyo instituti, O'simlik moddalari kimyosi instituti, Andijon davlat universiteti, Andijon davlat tibbiyot instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, shifobaxsh o'simliklar asosida turli o'smalarga qarshi dorivor birikmalar olingan (Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry Germaniya); dorivor o'simlik tarkibidagi tabiiy nutriyentlar miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale "Toso Montanari", Università di Bologna, Italiya); shifobaxsh o'simliklar asosida saraton profilaktikasi uchun tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); tarkibida tabiiy biologik faol birikmalar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish texnologiyasi yaratilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); Onkoviruslarga qarshi ta'sirga ega birikmalarni o'simliklardan ajratib olish usullari ishlab chiqilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University (Xitoy)); ayrim dorivor o'simlik navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O'simlik moddalar kimyosi instituti, O'zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh o'simliklar asosida inson organizmidagi saraton kasalligini keltirib chiqaruvchi omillarni oldini olish xususiyatiga ega tabiiy preparatlar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, purinergik retseptorlarning tabiiy ingibitorlari o'sma mikro-muhitida immunitetni qayta faollashtirish jarayonini tabiiy vositalar asosida rivojlantirish; tabiiy dorivor preparatlar yordamida T-limfotsitlarning faolligini oshirish va hujayra proliferatsiyasini susaytirish; tabiiy birikmalarning purinergik signal yo'llarini tormozlash xususiyatidan foydalangan holda saraton hujayralarining o'sishini sekinlashtirish, apoptozni kuchaytirish hamda toksik ta'siri kamaytirish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy olimlar tomonidan purinergik retseptorlarning saraton patogenezidagi o'rni keng o'rganilgan. Masalan, Maria Pia Abbraccio, Francesco Di Virgilio, Kenneth Jacobson, Wolfgang Fischer, Lingyin Li va Dietrich Büsselberg kabi tadqiqotchilar purinergik P2X7 retseptorini modulyatsiya qiluvchi tabiiy birikmalarning saraton hujayralariga ta'sirini aniqlaganlar. Ularning ilmiy ishlari purinergik signalizatsiya yo'llarini nishonga olish orqali saraton immunoterapiyasida yangi yondashuvlarni taklif etadi. Shunga qaramay, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'p hollarda in vitro bosqichda qolgan va klinik amaliyotga joriy etilmagan.

Tabiiy kelib chiqishli bioaktiv moddalarning flavonoidlar, alkaloidlar, terpenoidlar purinergik retseptorlar faoliyatiga ta'siri to'g'risida ayrim ilmiy natijalar mavjud bo'lsada, ularning molekulyar mexanizmlari, immun javobdagi o'rni va saraton mikro-muhitiga ta'siri hali etarli darajada o'rganilmagan.

O'zbekiston olimlari orasida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar birinchi marotaba professor Mamatova I.Y. rahbarligida boshlangan bo'lib, o'simliklardan olingan bioaktiv moddalarning purinergik retseptorlarga ta'sirini aniqlash bo'yicha dastlabki ilmiy natijalar olingan. Mazkur ilmiy maktab doirasida o'tkazilgan izlanishlar O'zbekistonda purinergik signal yo'llarini tabiiy vositalar yordamida modulyatsiya qilish bo'yicha fundamental yo'nalishni shakllantirgan.

Ushbu tadqiqotlar purinergik signal yo'llarini tabiiy moddalarga asoslangan holda boshqarish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab, ularning saraton patogenezidagi o'rnini aniqlashga xizmat qilmoqda. Dissertatsiya esa purinergik retseptorlarning tabiiy ingibitorlari orqali saraton rivojlanish jarayonlarini chuqurroq o'rganish, avval boshlangan ilmiy izlanishlarni izchil davom ettirish va mazkur yo'nalishda yangi terapevtik yondashuvlar uchun ilmiy asos yaratishga qaratilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot instituti da olib borilgan professor Mamatova I.Y. rahbarligidagi "Makrofag proliferatsiyasini boshqarish orqali bir qator kasalliklarni immunoterapevtik davolash usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyiha (Shartnoma № AL-7823051378) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Purinergik retseptorlarning tabiiy kelib chiqishga ega ingibitorlarini aniqlash va ular asosida saraton kasalligining rivojlanish mexanizmlarini tartibga soluvchi yangi terapevtik nishonlarni ishlab chiqish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston sharoitida purinergik retseptorlarning (CD39/CD73/A<sub>2</sub> A) tabiiy ingibitorlarini aniqlash va ularning adenozin hosil bo'lishiga hamda purinergik signalizatsiya modulyatsiyasiga ta'sirini molekulyar va hujayraviy darajada o'rganish.

Tabiiy komplekslarning purinergik signalizatsiya bilan bog'liq yallig'lanish va apoptoz markerlariga (IL-1 $\beta$ , TNF- $\alpha$ , IL-10, TGF- $\beta$ ) ta'sirini baholash hamda IL-10/TNF- $\alpha$  nisbati va Annexin-V/PI oqim sitometriyasi orqali apoptoz jarayonining faollashishini aniqlash.

Tabiiy komplekslarning antiradikal, antioksidant va immunoregulyator xususiyatlarini, hujayra hayotiyliigi (MTT) hamda adenozin va sitokin profili (ELISA) asosida baholash va ularning in vivo sharoitdagi toksikologik xavfsizligini aniqlash.

Tabiiy komplekslarning doksorubitsin bilan molekulyar va hujayraviy darajadagi sinergik ta'sirini o'rganish hamda kombinatsion qo'llash orqali sitotoksik samaradorlikni oshirish va sog'lom to'qimalarga nisbatan toksik ta'sirni kamaytirish mexanizmlarini aniqlash.

Olingan eksperimental va klinik ma'lumotlar asosida purinergik signalizatsiyani nishonga oluvchi, xalq tabobati vositalariga asoslangan ilmiy

jihatdan asoslangan fitoterapevtik immunomodulyator modelni ishlab chiqish va uni saraton immunoterapiyasida qo'llash imkoniyatlarini asoslash.

**Tadqiqotning ob'yekti.** Tadqiqotning ob'ekti sifatida saraton hujayra liniyalari, tajriba hayvonlari hamda xalq tabobatida ishlatiladigan o'simlik ekstraktlari, sut bezi saratoni tashxisi qo'yilgan jami 120 nafar bemor ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti.** Purinergik retseptorlarning tabiiy kelib chiqishga ega ingibitorlarining saraton hujayralari va makrofaglardagi proliferatsiya, apoptoz hamda immun javob jarayonlariga ta'sirini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida laboratoriya va instrumental tekshirish usullari qo'llanildi: qon umumiy hamda biokimyoviy tahlili, magnit-rezonans tomografiya (MRT), va boshqa klinik diagnostik usullar yordamida bemorlarning umumiy holati baholandi. Shuningdek, hujayra madaniyatlarida o'tkazilgan eksperi mental tahlillar (Annexin V-FITC/PI oqim sitometriyasi, ELISA, MTT testi) va im munoferment, gistologik, morfologik usullar asosida purinergik retseptorlarning faoli yati o'rganildi. Tadqiqotda xalq tabobati vositalari va tabiiy bioaktiv moddalarning za monaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirilgan fitoterapevtik usullaridan ham foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ilk bor purinergik reseptorlarni modulyatsiya qilish (adenozin hosil bo'lishini kamaytirishi, CD39/CD73 ekspressiyasini pasaytirishi va A<sub>2</sub>A reseptorini bloklashi imkoniyatlari) mumkinligi isbotlangan O'zbekiston sharoitida mahalliy xomashyo asosida tayyorlangan, toksik bo'lmagan va samarali immunomodulyator vositalar ishlab chiqilgan.

Tabiiy komplekslarning yallig'lanish va apoptoz markerlariga ta'siri. Purinergik signalizatsiya bilan bog'liq IL-1 $\beta$ , TNF- $\alpha$ , IL-10 va TGF- $\beta$  kabi biomarkerlar o'rganilib, tabiiy komplekslar ta'sirida IL-10/TNF- $\alpha$  nisbatini normallashtirgani, yallig'lanish markerlarini pasaytirgani va apoptoz jarayonini 2–3 baravar oshirgani oqim sitometriya (Annexin-V/PI) natijalari asosida isbotlangan.

Tabiiy komplekslarning antiradikal, antioksidant va immunoregulyator xususiyatlari, hujayra hayotiyligi (MTT) va adenozin/sitokin profili (ELISA) aniqlandi. *In vivo* tahlillarida ALT, AST, LDH, CRP va MDA ko'rsatkichlarining fiziologik me' yorga qaytishi ularning past toksiklik va yuqori terapevtik indeksga ega ekanligi isbotlangan.

Asmair va AszafIr komplekslarning doksorubitsin bilan molekulyar va hujayraviy darajadagi sinergik ta'siri aniqlanib, ushbu kombinatsiya saraton hujayralarida sitotoksik samaradorlikni sezilarli darajada kuchaytirishi bilan birga, sog'lom to'qimalarga nisbatan toksik ta'sirni kamaytiruvchi yangi kombinatsion terapevtik yondashuv modeli sifatida ilmiy jihatdan asoslangan.

Xalq tabobati usullari bilan uyg'unlashtirilgan fitoterapevtik usullar yordamida Asmair va AsZafIr biologik faol qo'shilmalar asosida saraton immunoterapiyasida qo'llash uchun ilmiy jihatdan asoslangan fitoterapevtik model ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.** Tabiiy kelib chiqishga ega purinergik retseptor ingibitorlari asosida ikki yangi kompleks (AsZafIr va Asmair) ishlab chiqildi. Ushbu komplekslar o'zida flavonoid, fenolik kislota va terpenoidlarning optimal nisbatini saqlagan holda antiradikallik, antioksidant va immunomodulyator xususiyatlarga ega ekanligi tajribada isbotlandi.

Saraton hujayralarida tabiiy komplekslarning purinergik signal yo'liga (CD39/CD73/A<sub>2</sub> A) ta'siri birinchi marta amaliy jihatdan ko'rsatildi. Komplekslar adenozin ishlab chiqarilishini kamaytirib, ATP/adenozin muvozanatini tiklashi va immunosuppressiv muhitni kamaytirishi aniqlangan.

Tabiiy komplekslarning sitotoksik va apoptotik samarasi uchun amaliy mezonlar ishlab chiqilib ular asosida saraton hujayralarida o'sish darajasini aniqlash, apoptoz/nekroz nisbatini baholash uchun qo'llaniladigan yangi diagnostik yondashuv takomillashtirildi.

Tabiiy komplekslarning *in vivo* toksikologik xavfsizligi isbotlandi. Laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan tajribalarda ALT, AST, LDH, bilirubin va kreatinin darajalari fiziologik me'yorda saqlanib, preparatlarning toksik ta'siri past ekani aniqlandi.

Klinik kuzatuvlar natijasida tabiiy komplekslar qo'llanilganda bemorlarda jigar va buyrak faoliyati yaxshilanishi hamda yallig'lanish markerlari pasayishiga ta'sir etishi isbotlandi.

Purinergik retseptorlar (CD39, CD73, A<sub>2</sub> A) faoliyatini aniqlash uchun oqim sitometriya asosida amaliy diagnostik panel yaratildi.

Tabiiy komplekslar yordamida immun balansni tiklashning yangi fitoterapevtik modeli ishlab chiqildi. Model asosida IL-1 $\beta$ , IL-6, TNF- $\alpha$  va IL-10 o'zgarishlari orqali immun javobning M1/M2 makrofag yo'nalishi nazorat qilinishi mumkinligi aniqlandi.

Yangi preparatlarining *in vitro*, *in vivo* va klinik tajribalarda o'tkazilgan sinovlar asosida ularni onkoterapiyada yordamchi (adjuvant) fitoterapevtik vosita sifatida qo'llash imkoni isbotlandi.

**Tadqiqot natijalarini ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kompleks, standartlashtirilgan laboratoriya, biokimyoviy, immunologik usullarning qo'llanilishi bilan ta'minlandi. Eksperimental bosqichda Annexin V-FITC/PI oqim sitometriyasi, ELISA va MTT testi natijalari SPSS v26 dasturida ANOVA tahlili orqali statistik jihatdan isbotlandi. Klinik bosqichda MRT kabi instrumental tekshirish usullari qo'llanilib, olingan ma'lumotlar takrorlanuvchanligi bilan tasdiqlandi. Tabiiy bioaktiv moddalarning kimyoviy tarkibi element tahlili asosida standartlashtirildi. Natijalarning eksperimental va klinik jihatdan muvofiqligi ularning ishonchliligini ta'minladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda purinergik signalizatsiyaning (A<sub>2</sub> A, P2X7, P2Y2 retseptorlari) saraton patogenezidagi o'rnini yangi ilmiy yondashuv asosida ochib berildi. O'sma mikro-muhitida CD39-CD73-A<sub>2</sub> A o'qi orqali shakllanadigan immunosuppressiv mexanizmlar, adenozin-ATP balansining buzilishi hamda ularning immun hujayralar faoliyatiga ta'siri tizimli ravishda ilmiy

asoslandi. Birinchi marta O‘zbekiston ilmiy maktabida purinergik retseptorlarning tabiiy ingibitorlari orqali immunometabolik regulyatsiya konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, saraton mikro-muhitida immun balansni baholash uchun IL-10/TNF- $\alpha$  indeksi taklif etilib, u immun javob holatini baholashning yangi ilmiy mezoni sifatida asoslandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, saraton terapiyasida xalq tabobati vositalarini zamonaviy molekulyar tibbiyot bilan integratsiyalashgan fitoterapevtik model ishlab chiqildi. AsZafir va Asmair kabi tabiiy komplekslarning purinergik signal yo‘liga ta‘sir etish mexanizmlari aniqlanib, ularning immunosuppressiv adenozin hosil bo‘lishini kamaytirishi va apoptotik jarayonlarni faollashtirishi eksperimental isbotlandi. O‘zbekiston florasiga mansub dorivor o‘simliklar asosida ekologik toza, import o‘rnini bosuvchi biofaol preparatlar yaratish uchun ilmiy-amaliy baza shakllantirildi. Tadqiqot natijalari asosida purinergik faollikni baholash uchun oqim sitometriya, ELISA va MTT testlariga tayangan laboratoriya yondashuvlar hamda saraton terapiyasida tabiiy immunoregulyator vositalardan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilib, ularni sog‘liqni saqlash tizimi va onkologiya amaliyotiga joriy etish imkoniyati yaratildi.

#### **Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.**

*Birinchi ilmiy yangilik:* ilk bor purinergik reseptorlarni modulyatsiya qilishi (adenozin hosil bo‘lishini kamaytirishi, CD39/CD73 ekspressiyasini pasaytirishi va A<sub>2</sub>A reseptorini bloklashi imkoniyatlari) isbotlangan O‘zbekiston sharoitida mahalliy xomashyo asosida tayyorlangan, toksik bo‘lmagan va samarali immunomodulyator vositalar ishlab chiqilib O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2024 yil 31 mayda moliyalashtirilgan loyiha doirasida (#AL-7823051378-son shartnoma) xamda 2025 yil 15 dekabrda 01-28/12106-son O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi amaliyotiga tadbiq etildi. Ijtimoiy samaradorligi: be‘morlarda immunosuppressiv holatni kamaytirib, saraton va yallig‘lanish kasalliklarida xavfsiz hamda samarali davolash yondashuvlarini joriy etishga xizmat qiladi. Iqtisodiy samaradorligi: tabiiy purinergik ingibitorlar import dori vositalariga qaramlikni kamaytirib, dori ishlab chiqarish va klinik davolash bilan bog‘liq xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Sut bezi saratoni bemorlarida tabiiy komplekslar 6 oylik standart kimyoterapiya davomida qo‘llanganda, davolashni 1 oyga qisqartirib toksiklikni kamaytiradi, bemor boshiga o‘rtacha 68,8 mln so‘m tejamkorlikni ta‘minlaydi va 100 bemor uchun 6 oyda 6,9 mlrd so‘m iqtisodiy samaraga erishiladi, bu remissiya tezligi 20–25 % oshishi va rehabilitatsiya davrining qisqarishi bilan bog‘liq.

*Ikkinchi ilmiy yangilik:* tabiiy komplekslarning yallig‘lanish va apoptoz markerlariga ta‘siri. Purinergik signalizatsiya bilan bog‘liq IL-1 $\beta$ , TNF- $\alpha$ , IL-10 va TGF- $\beta$  kabi biomarkerlar o‘rganilib, tabiiy komplekslar ta‘sirida IL-10/TNF- $\alpha$  nisbatini normallashtirgani, yallig‘lanish markerlarini pasaytirgani va apoptoz jarayonini 2–3 baravar oshirgani oqim sitometriya (Annexin-V/PI) natijalari bilan tasdiqlanib, bo‘yicha takliflar Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali

ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 28 avgustdagi 112-25-son bilan tasdiqlangan “Purinerjik signalizatsiya tizimi va uning tabiiy modulyatorlari: sut bezi saratoni immunomikromuhitidagi roli” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmu'niga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 3 sentyabrdagi 126-son xamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 7 oktyabrdagi 145-son buyruqlari, Sog'likni saqlash vazirligi xuzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 12 dekabrdagi 31/m-07 son xulosasi bilan amalioytga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: purinerjik signalizatsiyani tartibga solib, immun faollikni tiklaydi va saraton bilan og'rikan bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi. Iqtisodiy samaradorligi: import preparatlarga ehtiyojni kamaytirib, davolash va reabilitatsiya xarajatlarini qisqartiradi.

*Uchunchi ilmiy yangilik:* Tabiiy komplekslarning antiradikal, antioksidant va immunoregulyator xususi yatlari, hujayra hayotiyli (MTT) va adenzin/sitokin profili (ELISA) aniqlandi. *In vivo* tahlillarida ALT, AST, LDH, CRP va MDA ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorga qaytishi ular bo'yicha takliflar Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 28 avgustdagi 110<sup>b</sup>-25-son bilan tasdiklangan “Purinerjik retseptorlarni modulyatsiya qilish orqali sut bezi saratonida immun faollikni tiklashning tabiiy biofaol komplekslar asosidagi yangi terapevtik yondashuvi” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmu'niga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 3 sentyabrdagi 126-son xamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 7 oktyabrdagi 145-son buyruqlari xamda Sog'likni saqlash vazirligi xuzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 12 dekabrdagi 31/m-07 son xulosasi bilan amalioytga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: bemorlarning hayot sifati va mehnatga layoqati yaxshilanib, asoratlar hamda qayta gospitalizatsiya kamayadi, oilalarning parvarish xarajatlari va psixo-emotsional zo'riqishi qisqaradi. Iqtisodiy samaradorligi: ALT/AST/LDH/CRP/MDA me'yorlashuvi hisobiga asoratlar, qo'shimcha dori vositalari, laborator monitoring va stasionar davolanish xarajatlari qisqaradi.

*To'rtinchi ilmiy yangilik:* tabiiy komplekslarning doksorubitsin bilan molekulyar va hujayraviy darajadagi sinerjik ta'siri aniqlanib, ushbu kombinatsiya saraton hujayralarida sitotoksik samaradorlikni sezilarli darajada kuchaytirishi bilan birga, sog'lom to'qimalarga nisbatan toksik ta'sirni kamaytiruvchi yangi kombinatsion terapevtik yondashuv modeli sifatidagi ilmiy asoslar Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 28 avgustdagi 111-25-son bilan tasdiqlangan “Doksorubitsin bilan sinerjiyada ‘AsZafIr’ tabiiy kompleksining apoptotik ta'sirini baholash (kombinatsion model)”, 110<sup>a</sup>-25-son bilan tasdiklangan “Purinerjik retseptorlarni modulyatsiya qilish orqali sut bezi saratonida immun faollikni tiklashning tabiiy biofaol

komplekslar asosidagi yangi terapevtik yondashuvi” nomli uslubiy tavsiyanoma xamda 2025 yil 28 avgustdagi 112-25-son bilan tasdiqlangan “Purinerjik signalizatsiya tizimi va uning tabiiy modulyatorlari: sut bezi saratoni immunomikromuhitidagi roli” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmu’niga singdirilgan. Mazkur taklif Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg‘ona viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 3 sentyabrdagi 126-son xamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 7 oktyabrdagi 145-son buyruqlari, Sog‘likni saqlash vazirligi xuzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 12 dekabrdagi 31/m-07 son xulosasi bilan amalioytga joriy etilgan. Ijtimoyi samaradorligi: doksorubitsin va “AsZaflr” sinergik kombinatsiyasi amaliyotga joriy etilib, saraton hujayralarida samaradorlikni oshirgan holda sog‘lom to‘qimalar toksikligini kamaytirishi orqali ijtimoiy-iqtisodiy foyda beradi. Iqtisodiy samaradorligi: asoratlar va qo‘shimcha dori/gospitalizatsiya xarajatlarini kamaytirib, davolash xarajatlarini optimallashtirishi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

*Beshinchi ilmiy yangilik:* olingan eksperimental va klinik natijalar asosida “AsZaflr” va “Asmair” vositalari asosida saraton immunoterapiyasida qo‘llash uchun ilmiy jihatdan asoslangan fitoterapevtik model ishlab chiqildi va 2025 yil 12 dekabrdagi 1/12-IL-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq tabobati markazi amaliyotiga joriy etildi. Ijtmoyi smaradorligi: mahalliy xomashyo asosidagi toksik bo‘lmagan immunomodulyator fitomodelni amaliyotga joriy etish bemorlarning hayot sifatini va davolanishga moslashuvini oshirib, import dori xarajatlari hamda asoratlar bilan bog‘liq davolash sarfini kamaytiradi. Iqtisodiy samaradorligi: sog‘liqni saqlash tizimida “arzon–xavfsiz–samarali” tamoyiliga mos bo‘lib, onkologik bemorlarni qo‘llab-quvvatlashda davlat va jamiyat xarajatlarini optimallashtirish imkonini yaratadi.

**Tadqiqot natijalarini aprobatyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muxokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 10 ta maqola Respublika miqyosidagi va 9 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xotima, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 153 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiya kirish qismida** zamonaviy onkologiyada saraton kasalliklarining immunopatogenetik mexanizmlari, xususan o‘sma mikro-muhitida purinerjik signalizatsiya tizimining (ATP–adenozin, CD39–CD73–A<sub>2</sub>A o‘qi) markaziy roli yoritilgan. Purinerjik P1 va P2 retseptorlarning hujayra

proliferatsiyasi, apoptozdan qochish, angiogenez va immunosupressiya jarayonlarini boshqarishdagi ahamiyati tahlil qilinib, mavjud sintetik ingibitorlarning cheklanganligi va toksikligi fonida tabiiy bioaktiv moddalarga asoslangan alternativ yondashuvlar zarurligi asoslab berilgan. O'zbekiston florasiga mansub dorivor o'simliklar asosida yaratilgan fitokomplekslarning purinergik tizimga ta'sirini chuqur o'rganishning ilmiy va amaliy dolzarbligi ko'rsatilib, mazkur tadqiqotning maqsadi, yangiligi va milliy onkologiya hamda fitoterapiya yo'nalishlari uchun istiqbollari belgilab berilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi “Purinergik signalizatsiya, saraton patogenezi va tabiiy bioaktiv moddalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili” bobida** purinergik signalizatsiyaning biologik va molekulyar asoslari, ekstrasellulyar ATP/adenozin tizimi ning o'sma rivojlanishidagi o'rni, P1 va P2 retseptorlarining saraton mikro-muhiti dagi funksional roli batafsil yoritilgan. Bobda o'sma immuno supressiyasida A2A va P2X7 retseptorlarining ahamiyati, angiogenezni kuchaytiruvchi A2B yo'li, shuningdek o'sma hujayralari tomonidan adenozinning ko'p ishlab chiqarilishi natijasidagi immun tizimning susayishi haqida ilmiy dalillar tahlil qilingan. Shuningdek, xalq tabobati va tabiiy manbalardan olingan flavonoidlar, alkaloidlar va terpenoidlarning purinergik retseptorlarga potentsial ta'siri bo'yicha jahon adabiyotlari ko'rib chiqilib, klinik jihatdan istiqbolli bo'lgan tabiiy modulyatorlar haqida mavjud ilmiy bo'shliqlar aniqlangan.


**Tadqiqotimizning ikkinchi “Tadqiqot ob'ekti, materiallari va metodlari” bobida** tadqiqotning asosiy ob'ektlari saraton hujayra liniyalari, laboratoriya hayvonlari va klinik bemorlar guruhi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Tadqiqotda qo'llanilgan “AsZafIr” va “Asmair” tabiiy komplekslarining tarkibi, ekstrakt tayyorlash texnologiyasi, HPLC/LC-MS orqali kimyoviy standartlash usullari bayon etilgan. *In vitro* MTT testi, Annexin-V/PI oqim sitometriyasi, ELISA analizlari, CD39/ CD73/A2A markerlarini aniqlash metodlari, shuningdek *in vivo* toksikologik va yallig'lanishga qarshi testlar keltirilgan. Statistik tahlillar bajarilgan. Bu bob tadqiqotning eksperimental asosini tashkil etadi.

**Tadqiqotimizning uchinchi “Tabiiy ingibitorlarning purinergik retseptorlarga ta'siri” bobida** tabiiy komplekslarning (AsZafIr va Asmair) antiradikallik va antioksidant xususiyatlari DPPH testi orqali baholangan, HPLC va LC-MS yordamida flavonoidlar va terpenoidlarning aniq tarkibi aniqlangan. Molekulyar doking natijalari asosida kversetin, luteolin, apigenin va triterpenoidlarning A2A va P2X7 retseptorlari bilan yuqori affinitetga ega ekani ko'rsatilgan. *In vitro* tajribalar orqali tabiiy komplekslarning saraton hujayralarida proliferatsiyani kamaytirishi, apoptozni 2-3 baravar oshirishi, CD39/CD73 ekspressiyasini pasaytirishi va adenozin ishlab chiqarilishini cheklashi eksperimental ravishda isbotlangan. Shuningdek, “AsZafIr” kompleksi doksorubitsin bilan sinergik apoptotik ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Melissa officinalis ekstrakti Salvia splendens va Plantago major bilan turli nisbatlarda kombinatsiyalanib, ularning antiradikal faolligi (ARf, %) DPPH testi orqali baholandi. Melissa–Salvia aralashmasida 75:25 nisbatda eng yuqori ARf ( $\approx 79$  %) qayd etilib, melissa tarkibidagi polifenol va flavonoidlarning ustun roli


tasdiqlandi; melissa ulushi kamayishi bilan faollik pasaydi. Melissa–Plantago major kombinatsiyasida esa 50:50 nisbatda ARf  $\approx$ 76 % gacha oshib, fenolik birikmalar o‘rtasida yaqqol sinergiya mavjudligi aniqlandi (1-rasm). Shu asosda Melissa–Salvia (75:25) “Kompleks-1”(AsZafIr), Melissa–Plantago major (50:50) esa “Kompleks-2” (Asmair) sifatida tanlab olindi.

Saraton mikro-muhitida CD39–CD73–A2A purinergik o‘qi orqali immunosuppressiv adenzin signalizatsiyasi shakllanishi ma’lum bo‘lib, polifenollar ushbu tizimni modulyatsiya qilishi mumkin. Xususan, kversetin CD73 faolligini pasaytirishi, gall va digallik kislotalar P2X7 retseptori orqali NF- $\kappa$ B/STAT3 signalini susaytirishi ko‘rsatilgan. Flavonoidlar, shuningdek, PI3K/Akt/mTOR, NF- $\kappa$ B va Wnt/ $\beta$ -katenin yo‘llarini tormozlash orqali antiproliferativ va antiangiogen ta’sir namoyon etadi.




1-rasm. Melissa va Plantago majoring(zangori) va Melissa va Salvia (sariq) ekstraktlarini turli nisbatlardagi antiradikkallik faolligi.

Shu bois AsZafIr kompleksidagi asosiy polifenollar (salitsil kislota, rutin, gall kislota, kversetin, kempferol va apigenin) miqdori RP-YuSSX (HPLC) usuli bilan aniqlandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, salitsil kislota dominant komponent bo‘lib ( $\approx$ 97,2 %), qolgan polifenollar kam miqdorda qayd etildi, bu ekstraktning antioksidant va immunomodulyator potensialini belgilovchi asosiy kimyoviy profilni tasdiqlaydi (2-rasm).



2-rasm. Ekstraktidagi polifenollarning miqdori va ushlanish vaqtlari.


Asmair o‘rganilganda (3-rasm) 100 g namuna bo‘yicha umumiy polifenollar miqdori 212,34 mgni tashkil etdi. Fenol profilning deyarli to‘liq qismini salitsil kislota (208,14 mg; 98,02%) tashkil qilgan o‘lib, apigenin (0,75%), kversetin (0,54%), rutin (0,33%), gall kislota (0,20%) va kempferol (0,17%) iz darajalarida qayd etildi (tR: 8,43–30,16 daq).



3-rasm. Ekstraktidagi polifenollarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Purinerjik yo‘l saraton mikro-muhitida CD39/CD73 orqali ATP ning adenozinga aylanishi va A2A/A2B retseptorlari orqali kuchli immunosupressiya shakllanishi bilan tavsiflanadi; ATP-ga sezgir P2X7 retseptori esa o‘sma progressiyasi va antitumor immun javobning muhim nishonlaridan hisoblanadi. Ekstrakt tarkibidagi polifenollar ushbu tizimning turli bo‘g‘inlarini modulyatsiya qilish potentsialiga ega: kversetin CD73 faolligini ingibirlab adenozin hosil bo‘lishini kamaytirishi, gall/digallik kislotalar esa P2X7 orqali kechuvchi signalizatsiyani susaytirishi mumkin. Apigenin, kempferol va rutin PI3K/Akt/mTOR, NF- $\kappa$ B hamda Nrf2 yo‘llari orqali antiproliferativ va antiinflamator ta’sir ko‘rsatib, polifenol-boy ekstraktlarni CD73/A2A va P2X7 nishonlarini birgalikda boshqaruvchi saratonga qarshi adjuvant strategiya sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib, har ikki namunada polifenol profili salitsil kislota-dominant bo‘lib, yallig‘lanishga qarshi potensial yuqori ekani ko‘rsatildi; flavonoidlar miqdori nisbatan kam bo‘lsa-da, ular antiproliferativ ta’sirga va ehtimol, purinerjik tizimni bilvosita modulyatsiya qilishga hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu tadqiqotda inson biopattlaridan sut bezi saratoni, moyak saratoni va oshqozon adenokarsinomasiga oid birlamchi hujayra madaniyatlarini o‘stirilib, jarrohlik biopsiyalari patomorfologik tasdiqdan so‘ng steril sharoitda dissotsiatsiya qilindi va standart madaniylashtirish sharoitlarida birlamchi madaniyatlar yaratildi. Hujayralarning kelib chiqishi morfologik belgilar, marker ekspressiyasi (IHC/IF) hamda STR-profillash orqali tasdiqlanib, olingan madaniyatlar barqaror proliferatsiya va o‘sma fenotipiga xos marker profillarini namoyon etdi (4-rasm).



4-rasm. Sut bezi saratoni, Seminoma typica, Oshqozon adenokarsinomasi- 50  $\mu$ m shkalada


Birinchi preparat: epitelial o‘sma hujayralari zich klaster/koloniya hosil qilgan, poligonal shaklli, yadro-sitoplazmatik nisbat yuqori va proliferatsiya belgilari kuchli bo‘lib bu AGS (oshqozon adenokarsinoma) morfologiyasiga mos. Ikkinchi preparat esa yirik monomorf germinal hujayralar, yirik giperxrom yadro va aniq yadrocha, mitozlar mavjud; stromada limfotsitar elementlar, nekroz yo‘q bo‘lib seminoma tipicaga xos..

Apoptoz ko'rsatkichi or'ganilganda oshqozon adenokarsinomasi hujayralari: nazorat guruhida hayotiy hujayralar ulushi  $97,6 \pm 1,9$  %, erta apoptoz  $2,1 \pm 1,9$  %, kech apoptoz esa  $0,31 \pm 0,02$  % bo'ldi. Doksorubitsin bilan ishlov berilganda hayotiy hujayralar  $95,3 \pm 2,1$  % gacha kamayib, erta apoptoz  $3,6 \pm 1,3$  % va kech apoptoz  $1,08 \pm 0,8$  % gacha oshdi. AsZafIrning  $0,01$  % konsentratsiyasida ta'siri kuchsiz bo'lib, erta apoptoz  $3,8 \pm 0,4$  % darajasida qoldi. Biroq  $0,005$  % dozada erta apoptoz  $15,6 \pm 5,0$  % gacha, kech apoptoz esa  $3,96 \pm 0,4$  % gacha oshdi ( $p < 0,01$ ), bu kuchli apoptoz induksiyasini ko'rsatadi (1-jadval).

## Oshqozon adenokarsinomasi (apoptoz foizi bo'yicha taqqoslash)

Guruh	Live % (mean ± SD)	Early Apop % (mean ± SD)	Late Apop % (mean ± SD)	Izoh
Nazorat	97.6 ± 1.9	2.1 ± 1.9	0.31 ± 0.02	Normal hayotchanlik yuqori
Doksorubitsin	95.3 ± 2.1	3.6 ± 1.3	1.08 ± 0.8	Erta apoptoz biroz oshgan
K-1 0.01 %	95.2 ± 0.2	3.8 ± 0.4	0.98 ± 0.4	Ta'sir kuchsiz moderat
